




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**



# **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISTE‘MOL NARXLARI INDEKSI**

**2025- yil yanvar**

# O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma iste'mol narxlari indeksi (INI)

YANVAR




INI iste'mol sektori-dagi inflyatsion jarayon-larning asosiy indikatori sifatida alohida o'rin egalla-b, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashda hal qiluvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Iste'mol narxlari o'zgarishini kuzatish uchun tovarlar va xizmatlar to'plami 420 turdagi tovarlar va 90 turdagi xizmatlarni qamrab oladi.

Har oyda 10 mingdan ortiq savdo nuqtalari va xizmat ko'rsatish obyektlari kuzatiladi, 120 mingdan ortiq narxlar qayd etiladi.



## YIG'MA INI, % da o'tgan oyga nisbatan



## o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2025- yilning yanvarida oylik yig'ma INI **100,7 %** ni tashkil etib, 2024- yil yanvaridagi ko'rsatkichdan 0,1 foiz bandga baland bo'ldi.

Yillik nisbatda (2024- yilning yanvariga nisbatan) mazkur ko'rsatkich **109,9 %** darajasida qayd etildi. Bu, 2024- yil yanvaridagi ko'rsatkichdan 1,3 foiz bandga baland, 2023- yilning yanvaridagi ko'rsatkichdan esa 2,3 foiz bandga past bo'ldi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

**170** turdagi tovarlar

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

**250** turdagi tovarlar

### Xizmatlar

**90** turdagi xizmatlar

# TOVARLAR VA XIZMATLAR INI

YANVAR


2025- yilning yanvarida tovarlar bo'yicha INI oy davomida **100,6 %** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatda mazkur ko'rsatkich **104,6 %** darajasida shakllanib, o'tgan yilning yanvaridagi ko'rsatkichdan 3,9 foiz bandga va 2023- yil yanvaridagi ko'rsatkichdan 8,7 foiz bandga past bo'ldi.



## TOVARLAR BO'YICHA INI, % da

yillar



■ o'tgan oyga nisbatan

■ o'tgan yilning yanvariga nisbatan


Xizmatlar bo'yicha qisqa muddatli INI 2025- yilning yanvarida **101,1 %** ni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich tovarlar bo'yicha mos ko'rsatkichdan 0,5 foiz bandga baland bo'ldi.

2024- yilning yanvariga nisbatan ko'rsatkich **127,0 %** darajasida shakllandi. Mazkur ko'rsatkich so'nggi besh yil (2021- yildan boshlab) davomidagi eng yuqori ko'rsatkich bo'ldi.



## XIZMATLAR BO'YICHA INI, % da

yillar



■ o'tgan oyga nisbatan

■ o'tgan yilning yanvariga nisbatan

Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro'yxatga olish har oying 10- sanasidan 20- sanasigacha amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni yig'ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig'ida narxlarni ro'yxatga olish har bir tovar va xizmat bo'yicha bir marta amalga oshiriladi va qo'shni davrlar uchun ro'yxatga olish oralig'i bir kalendar oyni tashkil qiladi. INIning hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun assortiment va hududiy siljishlar omillarining ta'siri chiqarib tashlanadi.

# TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARINING INI



YANVAR

2025-yilning dastlabki oyida oziq-ovqat mahsulotlari qisqa muddatli INI **100,8 %** ni tashkil etdi. Nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha ko'rsatkich **100,3%** ga, pullik xizmatlar bo'yicha esa **101,1%** ga yetdi.




2025- yilning yanvarida oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha yillik INI **102,6 %** darajasida, nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha **107,7 %**, pullik xizmatlar bo'yicha **127,0 %** darajasida qayd etildi.

## ASOSIY GURUHLAR BO'YICHA INI, % da

o'tgan oyga nisbatan



o'tgan yilning yanvariga nisbatan




Meva-sabzavot mahsulotlari narx tebranishlarini hisobga olmaganda oylik yig'ma INI **100,4 %** ga yetib, ushbu mahsulotlar narx o'zgarishlarini hisobga olgan holda hisob-kitob qilingan qisqa muddatli INI ko'rsatkichidan **0,3** foiz bandga past bo'ldi.

2025- yilning yanvaridagi yillik nisbatdagi yig'ma INIga meva-sabzavot mahsulotlari narx o'zgarishlari tutib turuvchi omil bo'lib xizmat qildi. Shunday qilib, mevalar va sabzavotlar narx tebranishlarini hisobga olgan holda hisob-kitob qilingan mazkur ko'rsatkich ularni hisobga olmagan holda hisob-kitob qilingan ko'rsatkichdan **2,1** foiz bandga past bo'ldi.


### Yig'ma INI, % da

o'tgan oyga nisbatan  
yillar




### Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI, % da


o'tgan oyga nisbatan  
yillar



o'tgan yilning yanvariga nisbatan  
yillar



o'tgan yilning yanvariga nisbatan  
yillar



Meva-sabzavot mahsulotlari narx o'zgarishlarini hisobga olganda



Meva-sabzavot mahsulotlari narx o'zgarishlarini hisobga olmaganda


# ASOSIY GURUHLARDAGI NARXLAR O'ZGARISHINING QISQA MUDDATLI YIG'MA INI O'SISH SUR'ATIGA TA'SIRI TUZILMASI

## Ta'siri (f.d.\*) va uning ulushi (%). 2025- yil yanvar


## Ma'lumot uchun

o'tgan oyga nisbatan


Jami ta'siri **+0,72 f.d.**



**+0,37 f.d.**



**+0,11 f.d.**




**+0,24 f.d.**

2024- yilning yanvariga nisbatan


Jami ta'siri **+9,9 f.d.**



**+1,2 f.d.**



**+2,5 f.d.**



**+6,2 f.d.**



Oziq-ovqat mahsulotlari



Nooziq-ovqat mahsulotlar



Xizmatlar

2025- yilning yanvarida qisqa muddatli INI o'sish sur'ati tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari narx o'zgarishlarining ta'siri uchta asosiy guruhlar orasida yuqoriroq (**51,4%**) bo'ldi.

2025- yil yanvarida yillik nisbatdagi yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atining **62,6 %** i xizmatlar sohasidagi narx va tariflarining o'sishi bilan bog'liq bo'ldi.

\*) foiz darajasida

INIning shakllantirish quyidagi ikkita ma'lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

1) salmoq vaznlarini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladigan aholining iste'mol xarajatlari tarkibi (uy xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari) to'g'risidagi ma'lumotlar;

2) hududlar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida iste'mol narxlari (ya'ni, tovarlar va xizmatlarning aholi tomonidan sotib olinadigan narxi) o'zgarishlari to'g'risidagi ma'lumotlar. O'rtacha narxlar darajasiga assortiment va hududiy siljishlar kabi bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. INIning hisoblashda, faqatgina inflyatsion omillarni aniqlash maqsadida ularning ta'siri hisobga olinmaydi.

Har bir tovarning yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga ta'siri va ulushi tovarning narx o'zgarishlari hamda uning iste'mol xarajatlari tuzilmasidagi salmoq vaznini hisobga olgan holda aniqlanadi.


# MAQSADLAR BO'YICHA INDIVIDUAL ISTE'MOL TASNIFLAGICHI – 2018 (O'ZR MIIT – 2018) BO'LIMLARI BO'YICHA INI

## YANVAR OYIDAGI INI, % da

2025- yilning yanvarida bo'limlar kesimida qisqa muddatli INI diapazoni **100,1 %** dan (VIII bo'lim "Axborot va aloqa") **103,5 %** gacha (X bo'lim "Ta'lim sohasidagi xizmatlar" chegarada bo'lgan bo'lsa, yillik INI **100,7 %** dan (VIII bo'lim "Axborot va aloqa") **137,4 %** gacha (IV bo'lim "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari") oraliqda bo'ldi.




### SPIRTLI ICHIMLIKLAR VA TAMAKI MAHSULOTLARI



2021 2022 2023 2024 2025 yillar




### OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR



2021 2022 2023 2024 2025 yillar




### KIYIM VA POYABZAL



2021 2022 2023 2024 2025 yillar




### TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG'I TURLARI



2021 2022 2023 2024 2025 yillar




### UY-RO'ZG'OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA XIZMAT KO'RSATISH



2021 2022 2023 2024 2025 yillar




### SOG'LIQNI SAQLASH



2021 2022 2023 2024 2025 yillar



### TRANSPORT



2021 2022 2023 2024 2025 yillar


o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning yanvariga nisbatan

## YANVAR OYIDA INI, % da




### AXBOROT VA ALOQA



2021 2022 2023 2024 2025  
yillar




### DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT



2021 2022 2023 2024 2025  
yillar




### TA'LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR



2021 2022 2023 2024 2025  
yillar




### RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI



2021 2022 2023 2024 2025  
yillar



### SUG'URTALASH VA MOLIYAVIY XIZMATLAR




2021 2022 2023 2024 2025  
yillar

o'tgan oyga nisbatan



### MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, BOSHQA TOVARLAR VA XIZMATLAR



2021 2022 2023 2024 2025  
yillar

o'tgan yilning yanvariga nisbatan




2025- YIL YANVAR


Donli ekinlar  
va yorma mahsulotlari




Go'sht  
mahsulotlari




Baliq va boshqa  
dengiz mahsulotlari




Sut, boshqa sut  
mahsulotlari va  
tuxum



Yog'lar va moylar




Mevalar va  
yong'oqlar




Sabzavotlar,  
ildizmevalilar  
va dukkaklilar




Shakar, qandolat  
mahsulotlari  
va desertlar



Tayyor oziq-ovqat  
mahsulotlari va boshqa  
oziq-ovqat mahsulotlari



Spirtsiz ichimliklar



2025- yilning yanvarida “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo'limi guruhlarida kesimida qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **96,5 %** dan **106,0 %** gacha chegarada joylashdi.

100,0 % lik darajadan past qisqa muddatli INI oy davomida “Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum” (**96,5 %**) guruhida qayd etilgan bo'lsa, “Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari”, “Yog'lar va moylar”, “Mevalar va yong'oqlar” hamda “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” guruhlarida o'sish sur'ati 1 % dan yuqori bo'ldi.


Joriy yilning yanvarida eng past yillik INI ko'rsatkichi “Mevalar va yong'oqlar” (**81,1 %**) guruhida, yuqori ko'rsatkich esa “Go'sht mahsulotlari” (**111,7 %**) guruhida qayd etildi.

o'tgan oyga nisbatan, % da      o'tgan yilning yanvariga nisbatan, % da


AYRIM TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BO'YICHA INI  
2025- YIL YANVAR, % da



Guruch va guruch oqshog'i



Bug'doy uni




Mol go'shti (suyakli)




Qo'y go'shti



Tovuq go'shti  
(son qismidan tashqari)




Tovuq son qismi



Xom, yangi sog'ilgan sut



Tuxum




Kungaboqar yog'i




Paxta yog'i



Shakar



Oq-qand



o o'tgan oyga nisbatan

o o'tgan yilning yanvariga nisbatan


2025- yilning yanvarida bodring, pomidor, mandarin kabi meva-sabzavot mahsulotlari narxlarida pasayish kuzatildi. Shu bilan bir qatorda, baqlajon, kartoshka, bulg'or qalampiri, limon va banan kabi mevalar va sabzavotlar narxlarida o'sish kuzatildi.

*Ma'lumot uchun: ro'yxatga olish davrida kartoshka narxining yuqori chegarasi 1 kg uchun 10 000 so'mdan oshganligi qayd etildi.*


Baqlajon, anor, pomidor, bulg'or qalampiri, limon, bodring, olma va banan narxleri 2025- yilning yanvar oyida 2024- yilning yanvariga nisbatan past darajada bo'ldi. Kartoshka narxleri esa, aksincha yillik nisbatda boshqalarga qaraganda yuqoriroq o'sdi.

## Meva-sabzavot mahsulotlari INI, % da

### o'tgan oyga nisbatan



### o'tgan yilning yanvariga nisbatan



YANVAR

2025- yilning yanvarida sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum narxlarining pasayishi tutib turuvchi omil bo'lib xizmat qilib, ularning hisobiga yig'ma ko'rsatkich oy davomida **0,16 f.d.** pasaydi.

“Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo'limi tovarlari orasida meva-sabzavot mahsulotlarining qisqa muddatli INI o'sish sur'atiga ta'siri **+0,36 f.d.** ga yetdi. Go'sht mahsulotlari narxlarining o'sishi yig'ma ko'rsatkichni **+0,07 f.d.** oshirdi. Boshqa guruhlar ta'siri past darajada bo'ldi.

### OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLIL ICHIMLIKLAR ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O'ZGARISHINING YIG'MA INI O'SISH (PASAYISH) SUR'ATIGA TA'SIRI, f.d.

o'tgan oyga nisbatan, f.d.

Jami ta'siri **+0,36**



Go'sht mahsulotlari

0,07



Baliq va dengiz mahsulotlari

0,01



Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum

-0,16



Yog'lar va moylar

0,04



Mevalar va yong'oqlar

0,07



Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar

0,31



Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari

0,01



Spirtsiz ichimliklar

0,01

### SPIRTLI ICHIMLIKLAR

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



2021 2022 2023 2024 2025  
yillar

yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2021 2022 2023 2024 2025  
yillar

### TAMAKI MAHSULOTLARI

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



2021 2022 2023 2024 2025  
yillar

yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan




2021 2022 2023 2024 2025  
yillar

2025- yilning yanvarida “Spirтли ichimliklar va tamaki mahsulotlari” (II) bo'limida qisqa muddatli INI tebranishlari **100,3 %** dan (aroq) **101,5 %** gacha (boshqa tamaki mahsulotlari) oraliqda joylashdi. II bo'lim bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqoriroq ko'rsatkich boshqa tamaki mahsulotlari sigaretlarda kuzatilgan bo'lsa, bo'limning boshqa tovarlari bo'yicha ko'rsatkich mazkur o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'ldi.

2024- yilning yanvariga nisbatan spirтли ichimliklar va tamaki mahsulotlari bo'yicha INI **108,7 %** dan (boshqa tamaki mahsulotlaridan) **112,9 %** gacha (sigaret) oraliqda joylashdi.

### Asosiy turlar bo'yicha 2025- yilning yanvaridagi INI, % da



o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning yanvariga nisbatan

### KIYIM

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



### POYABZAL

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan




yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



“Kiyim va poyabzal” bo'limida qisqa muddatli INI diapazoni 2025- yilning yanvarida **99,9 %** dan (bolalar uchun bosonojka, sandal va sandaletlar) **101,7 %** gacha (kiyimlarni ijaraga berish) oraliqda bo'ldi.

III bo'lim tovarlari bo'yicha 2024- yilning yanvariga nisbatan INI **103,0 %** dan (erkaklar uchun demisezon kurtkalar) **113,3 %** gacha (kimyoviy tozalash xizmatlari) diapazonda bo'ldi.

### Asosiy turlar bo'yicha 2025- yilning yanvaridagi INI, % da




o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning yanvariga nisbatan


yanvar oyida  
o'tgan oyga  
nisbatan

yanvar oyida  
o'tgan yilning  
yanvariga  
nisbatan


**TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI \***




**TURAR JOYLARGA XIZMAT KO'RSATISH,  
TA'MIRLASH VA QO'RIRQLASH**



**SUV TA'MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB  
TURISH BILAN BOG'LIQ BOSHQA XIZMATLAR**



**ELEKTR, GAZ VA YONILG'INING BOSHQA  
TURLARI**




\* kuzatuv 2021- yildan boshlangan.

Asosiy turdagi kommunal xizmatlardan joriy yilning yanvarida tariflarning oshishi faqatgina chiqindilarni yig'ish va olib ketish bo'yicha xizmatlarda (**104,6 %**) kuzatildi.

Shuningdek, turar joylarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun materiallar (100,1-100,3 %) narxlarida ham past darajada o'sish kuzatildi.

Tarmoq gaz (**229,0 %**) va elektr energiyasi (**167,0 %**) bilan ta'minlash xizmatlari bo'yicha yillik INI eng yuqori ko'rsatkichligicha saqlanib qoldi.

**Asosiy turlar bo'yicha  
2025- yilning yanvaridagi INI, % da**



o'tgan oyga nisbatan  
o'tgan yilning yanvariga nisbatan

yanvar oyida  
o'tgan oyga  
nisbatan

yanvar oyida o'tgan  
yilning yanvariga  
nisbatan

**MEBEL VA UY-RO'ZG'OR ASBOBLARI**



**UY XO'JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO'QIMACHILIK  
MAHSULOTLARI**



**MAISHIY USKUNALAR**



**SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR  
VA UY-RO'ZG'OR ANJOMLARI**



**KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG'DORCHILIKDA  
ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR**




**UY XO'JALIGINI YURITISH BILAN BOG'LIQ HOLDA  
ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR**



“Uy-ro'zg'or buyumlari, mai-  
shiy texnika va turar joylarga  
kundalik xizmat ko'rsatish” (V)  
bo'limi bo'yicha 2025- yilning  
yanvaridagi qisqa muddatli INI  
**99,9 %** dan (elektr batareykalar)  
**106,0 %** gacha (dezinfeksiyalash  
bo'yicha xizmatlar) oraliqda bo'ldi.

2024- yilning yanvariga  
nisbatan INI tebranishlari chega-  
rasi **102,5 %** (kir yuvish va quritish  
uchun yirik priborlar) **114,3 %** (gilam  
va gilam mahsulotlarini yuvish  
va tozalash bo'yicha xizmatlar)ni  
tashkil etdi.

**Asosiy turlar bo'yicha  
2025- yilning yanvaridagi INI, % da**



o'tgan oyga nisbatan


o'tgan yilning yanvariga nisbatan




yanvar oyida  
o'tgan oyga  
nisbatan

yanvar oyida o'tgan  
yilning yanvariga  
nisbatan


### DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI




### AMBULATORIYADA DAVOLASH BO'YICHA XIZMATLAR



### STATSIONARDA DAVOLASH BO'YICHA XIZMATLAR



### SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR



“Sog'liqni saqlash” (VI) bo'liga kiruvchi tovarlar bo'yicha 2025- yilning yanvar oyidagi qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,5 %** dan (shpritslar) **102,0 %** gacha (tibbiy laboratoriyalar xizmatlari) oraliqda joylashdi.

2024- yilning yanvariga nisbatan INI **107,7 %** dan (ko'rish uchun yordamchi vositalar) **128,0 %** gacha (antibiotik) diapazonda joylashdi.

### Asosiy turlar bo'yicha 2025- yilning yanvaridagi INI, % da




o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning yanvariga nisbatan


yanvar oyida  
o'tgan oyga  
nisbatan

yanvar oyida o'tgan  
yilning yanvariga  
nisbatan


### TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH



### SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH



### YO'LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI



### TOVARLARNI TASHISH BO'YICHA XIZMATLAR




2025- yilning yanvarida benzin respublika bo'yicha o'rtacha **1,5%** ga qimmatlashdi. Avtomobillar uchun gaz yoqilg'isi bo'yicha qisqa muddatli INI joriy yilning yanvarida **86,8-99,9%** oraliqda bo'ldi.

Shaxsiy transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash narxlari 2024- yilning dekabriga nisbatan **1,4%** ga oshgan. Haydovchilikka tayyorlash bo'yicha o'quv kurslari xizmatlari narxlari ushbu davrda respublika bo'yicha o'rtacha **12,5%** ga oshdi.

### Asosiy turlar bo'yicha 2025- yilning yanvaridagi INI, % da

#### Yoqilg'i turlari bo'yicha



#### Yo'lovchi transporti



o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning yanvariga nisbatan

### AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



### AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan




yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2025- yilning yanvarida noutbuk, kompyuter va planshetlar (**0,1-0,3 %**), periferik uskunarlar va ularni sarflash komponentlari, ovoz va tasvirlarni qabul qilish, yozish va aks ettirish uchun uskunarlar, kompleks telekommunikatsiya xizmatlari (**0,3 %**) hamda axborot va kommunikatsiya uskunarlarini ta'mirlash xizmatlari (**1,1 %**) narxlarida o'sish qayd etildi. Kuzatiladigan boshqa tovar va xizmat turlari narxlari 2024- yilning oxiridagi darajada saqlanib qoldi.

### Asosiy turlar bo'yicha 2025- yilning yanvaridagi INI, % da



o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning yanvariga nisbatan

yanvar oyida  
o'tgan oyga nisbatan

yanvar oyida o'tgan yilning  
yanvariga nisbatan

**DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BO'YICHA XIZMATLAR**



**MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA XIZMATLAR**



**KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH**




**BOG'DORCHILIK MAHSULOTLARI, UY HAYVONLARI**



**GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI**



**DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR**



2025- yil yanvaridan boshlab gazetalar va davriy jurnallar narxlari respublika bo'yicha o'rtacha **15,3 %** ga oshdi. Oy davomida uch foizlik o'sish chegarasidan kinoteatrlar xizmatlari (**103,7 %**) hamda o'simliklar, urug'lar va gular (**103,2 %**) narxlari oshib o'tdi. Teatr xizmatlari bo'yicha 2025- yil yanvar oyidagi qisqa muddatli INI **103,0 %** ga yetdi.

Joriy yilning yanvarida yillik nisbatdagi INI diapazoni **88,9 %** (A4 formatdagi qog'oz) – **122,4 %** ni (madaniyat va istirohat bog'lari xizmatlari) tashkil etdi.

**Asosiy turlar bo'yicha 2025- yilning yanvaridagi INI, % da**



o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning yanvariga nisbatan

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM**

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan




**OLIY TA'LIM**

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



**BOSQICHLARGA BO'LINMAGAN TA'LIM**

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan




yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2025- yilning yanvaridan respublikaning barcha hududlarida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) xizmatlari narxlari oshirildi. MTT to'lovlari respublika bo'yicha o'rtacha **21,0 %** ga o'sdi. Xususiy MTT xizmatlari ushbu davrda **1,1 %** ga qimmatlashdi.

2024- yilning yanvari bilan taqqoslaganda davlat MTT xizmatlari narxlarining o'rtacha darajasi **45,2 %** ga, xususiy MTTda **11,3 %** ga o'sdi.

**Asosiy turlar bo'yicha 2025- yilning yanvaridagi INI, % da**



o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning yanvariga nisbatan


### OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH BO'YICHA XIZMATLAR

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



2021 2022 2023 2024 2025  
yillar

yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2021 2022 2023 2024 2025  
yillar


### MEHMONXONALAR XIZMATLARI

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



2021 2022 2023 2024 2025  
yillar

yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan




2021 2022 2023 2024 2025  
yillar

Joriy yilning yanvarida mehmonxonalar xizmatlari sohasida narxlarning o'sish darajasi oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklarni yetkazib berish xizmatlari sohasidagidan sezilarli baland bo'ldi (**105,7 %** ga **100,6 %**). Biroq, mehmonxonalar xizmatlari sohasida 2025- yil yanvaridagi yillik INI (**110,5 %**) 2021- yilning yanvaridan buyon qayd etilgan eng past ko'rsatkich bo'ldi.

Joriy yilning yanvar oyida narxlar o'sishi asosan dam olish markazlari xizmatlarida qayd etildi. Mazkur xizmat turida narxlarning o'sishi respublikaning barcha hududlarida **4,1-17,5 %** chegarasida qayd etildi.

### Asosiy turlar bo'yicha 2025- yilning yanvaridagi INI, % da



o'tgan oyga nisbatan

o'tgan yilning yanvariga nisbatan

## SUG'URTA

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



2021 2022 2023 2024 2025  
yillar

yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2021 2022 2023 2024 2025  
yillar

## MOLIYAVIY XIZMATLAR

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



2021 2022 2023 2024 2025  
yillar

yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan




2021 2022 2023 2024 2025  
yillar


Moliyaviy xizmatlar orasida 2025- yilning yanvarida narxlarning o'sishi pul o'tkazmalari bo'yicha xizmatlarda kuzatildi. Mazkur xizmat turi bo'yicha qisqa muddatli INI **100,7** % ni tashkil etdi.


Boshqa kuzatiladigan moliyaviy xizmatlar narxlari sug'urta xizmatlari bilan bir qatorda, joriy yilning dastlabki oyida barqarorlikni saqlab qoldi.

XII bo'limda yillik nisbatdagi INI 2025- yilning yanvarida **100,0-104,6** % chegarasida tebrandi.

### Asosiy turlar bo'yicha 2025- yilning yanvaridagi INI, % da



 o'tgan oyga nisbatan

 o'tgan yilning yanvariga nisbatan

### MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



### SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan




yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan



### BOSHQA XIZMATLAR

yanvar oyida o'tgan oyga nisbatan



yanvar oyida o'tgan yilning yanvariga nisbatan





2025- yilning yanvarida XIII bo'limga kiruvchi tovarlar va xizmatlar bo'yicha qisqa muddatli INI ko'rsatkichi **99,9 %** dan (tualet qog'oz) **103,8 %** gacha (qimmatbaho metallardan tayyorlangan nikoh uzugi) chegarada bo'ldi.

2024- yilning yanvariga nisbatan uzoq muddatli INI mazkur bo'limda **101,3 %** dan (soqol olish uchun ko'pik, gel va krem) **131,4 %** gacha (qimmatbaho metallardan tayyorlangan nikoh uzugi) diapazonda tebrandi.

### Asosiy turlar bo'yicha 2025- yilning yanvaridagi INI, % da



 o'tgan oyga nisbatan


 o'tgan yilning yanvariga nisbatan



2025- yilning yanvar oyidagi qisqa muddatli yig‘ma ko‘rsatkich o‘shish sur‘atiga oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narx o‘zgarishlari yuqori (+0,36 f.d.) ta’sir ko‘rsatib, ularning hissasiga umumiy ta’sir darajasining 50 % i to‘g‘ri keldi.

“Ta’lim sohasidagi xizmatlar”, “Sog‘liqni saqlash” va “Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar” bo‘limlaridagi o‘zgarishlar hisobiga oylik yig‘ma ko‘rsatkich qo‘shimcha 0,22 f.d. (umumiy ta’sir darajasining 30,6 % i) yuqoriladi.

Boshqa bo‘limlardagi narx o‘zgarishlarining ta’siri past darajada bo‘ldi.



Yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, muayyan tovar yoki xizmat) ta’sir ulushi va hissasi pozitsiyalarning narxlar o‘zgarishlari va aholi xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

**Narx indeksi salmog‘i** – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o‘lcham bo‘lib, ular yordamida:

- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig‘indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;


- avvaldan o‘zaro solishtirib bo‘lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;

- qo‘llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo‘yicha o‘zaro solishtirilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o‘rganilayotgan hodisa bo‘yicha narx o‘zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.

## 2025- YILNING YANVAR OYIDA O‘ZR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR NARXLARI O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISHIGA TA‘SIRI

“Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” bo‘limidagi narx va tariflarning oshishi joriy yilning yanvaridagi yillik INI uchun hal qiluvchi inflyatsion omil bo‘lib qolmoqda. Mazkur bo‘lim hissasiga umumiy ta‘sir darajasining **45 %** idan ortig‘i to‘g‘ri keldi.

“Sog‘liqni saqlash” (**+1,13 f.d.**), “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (**+0,91 f.d.**), “Transport” (**+0,90 f.d.**), “Ta‘lim sohasidagi xizmatlar” (**+0,60 f.d.**) hamda “Kiyimlar va poyabzallar” (**+0,52 f.d.**) va “Maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa tovarlar va xizmatlar” (**+0,50 f.d.**) bo‘limlari ta‘siri ham sezilarli darajada bo‘ldi. Sanab o‘tilgan bo‘limlar hissasiga umumiy ta‘sir darajasining **46 %** i atrofida to‘g‘ri keldi.



Izoh: bo‘limlar ta‘sir darajalari yig‘indisining yig‘ma INI o‘sish sur‘atidan farqlanishi ko‘rsatkichlarning yaxlitlanganligi bilan bog‘liq.

# METAMA'LUMOTLAR VA TUSHUNTIRISHLAR

- INIni hisoblash xalqaro sifatni boshqarish modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO)ga asosan ishlab chiqilgan milliy modellarga muvofiq amalga oshiriladi.
- Narxlar kuzatuvini amalga oshirishda va INIni hisoblashda asos bo'ladigan tovarlar va xizmatlarning iste'mol to'plami, aholi tomonidan eng ko'p iste'mol qilinadigan tovarlar va pullik xizmatlar guruhlarini O'zbekiston Respublikasining barcha hududlari uchun yagona bo'lgan representativ tanlovini ifodalaydi. Ushbu to'plam Statistika agentligi tomonidan Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi (MIIT–2018), shuningdek, uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari tarkibi ma'lumotlari asosida shakllantiriladi va ma'lum vaqt davomida o'zgarishsiz qoladi (bir yildan kam bo'lmagan muddatda).
- To'plamga yangi tovarlar va xizmatlar kiritilishining mezoni, ularning aholi umumiy iste'mol xarajatlaridagi ulushi hisoblanadi. Yangi turdagi tovarlar va xizmatlar, ularning aholi umumiy iste'mol xarajatlaridagi ulushi 0,1 foizdan kam bo'lmagan hollarda iste'mol narxlari kuzatuv ro'yxati tarkibiga kiritiladi.
- Narxlar bo'yicha ma'lumotlar Nukus va Toshkent shaharlarida, viloyat markazlarida hamda tanlanma asosda mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, geografik joylashuvi hamda iste'mol bozorining tovarlar va xizmatlar bilan yetarlicha ta'minlanganlik darajasini aks ettirishini hisobga olgan holda tanlab olingan shaharlar va tumanlar markazlarida yig'iladi. Vakillikni (representativlikni) ta'minlash uchun hududlar kesimida savdo aylanmasi va uning tarkibi, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, aholi soni, shahar va tumanlar orasidagi masofa, viloyat markazidan uzoqligi va boshqa tegishli ma'lumotlar tahlil qilinadi.
- Tovarlarni va xizmatlarni narxlari va tariflari kuzatuvini tanlanma asosda ko'chmas savdo va pullik xizmat ko'rsatish sohasi obyektlarida (kiyim-kechak, aralash va oziq-ovqat bozorlari hamda do'konlarida, gipermarket, supermarket, minimarketlarda va h.k.), shuningdek, ko'chma savdo (palatka, kiosk va h.k.) joylarida ham amalga oshiriladi. Obyektlar tanlovi representativlik shartlari asosida amalga oshiriladi.
- Narxlarni ro'yxatga olish grafigi ma'lumotlarni qayta ishlash va umumlashtirish uchun zarur bo'ladigan vaqtni hisobga olgan holda shakllantirilgan bo'lib, kengaytirilgan Ma'lumotlarni tarqatishning umumiy tizimi tomonidan tavsiya etilgan va ma'lumotlarni e'lon qilish Kalendarida belgilangan muddatlarga asoslangan.
- Ta'kidlash joizki, INI faqatgina narxlar o'zgarishi to'g'risidagi ko'rsatkich bo'lib, u aholining joriy iste'mol tuzilmasidagi o'zgarishlarni hisobga olmaganligi sababli, turmush qiymati ko'rsatkichi hisoblanmaydi.
- INIni shakllantirishda inflyatsion omillarga bog'liq bo'lmagan qisqa muddatli narxlar oshishi hisobga olinmaydi. Masalan, noqulay ob-havo sharoitida taksi xizmatlari narxlarining birkunlik keskin oshishi va keyinchalik pasayishi hamda bozorda yuzaga kelgan talab va taklifning anomal tebranishlari bilan bog'liq qisqa muddatli narx oshishlari bunga misol bo'la oladi. Bu inflyatsion jarayonlarni baholash tahlil qilinayotgan davrdagi narx o'zgarishlarining umumiy tendensiyasini qamrab olishi lozimligi bilan bog'liq.
- Agar, narx o'zgarishlari narxlarni ro'yxatga olish bo'yicha tasdiqlangan muddatdan (o'ying 20- sanasidan) keyin sodir bo'lgan bo'lsa, u holda bu o'zgarish keyingi oyda aks etadi.
- INI bo'yicha inflyatsiya — mamlakat bo'yicha o'rtacha narx o'zgarishlarini umumlashtiruvchi ko'rsatkich. Ayrim tovarlar va xizmatlar qiymati juda kuchli o'zgarishi mumkin, biroq, ushbu xaridlarning savatdagi ulushi kichik bo'lsa, inflyatsiyaga bu past darajada ta'sir qiladi.
- Xususiy (shaxsiy) inflyatsiya — bu alohida uy xo'jaligining iste'mol savatidagi tovarlar narxlari umumiy darajasining o'sishi. Xususiy inflyatsiyani tahlil qilishning zaruriyati shundan iboratki, shaxsiy iste'mol savati statistika organlari tomonidan foydalaniladigan o'rtachalashtirilgan iste'mol savatidan farq qilishi mumkin.